

YOSHLARDAGI BOSHQARUVCHILIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IMOM TERMIZIY HADISLARIDAN FOYDALANISH

*Ter Du Boshlang`ich ta`lim kafedrası o`qituvchisi
N.Normurodova
Pedagogika fakulteti talabasi
I.Qurbonova*

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy, tarixiy merosga e`tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqloq yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda ulug`ajdodlarimizning yuksak iste`dodi bilan bunyod etilgan obidalar o`zining haqiqiy qadr qimmatini topdi. Ularni ta`mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yetti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me`moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san`at asari davlat muhofazasiga olingan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori barcha tarixchilar va olimlarning yelkasiga katta ma`suliyat yukladi. Islom dini rivojiga ulkan hissa qo`shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va Termiziy allomlarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o`rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug` allomlar, aziz avliyolar vatani bo`lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o`rtasida keng targ`ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g`oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg`usini yanada kuchaytirish maqsadida ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda.

XXI asrda ham insoniyat tarixidagi eng mashhur o`n alloma ro`yhati tuziladigan bo`lsa, albatta, unga imom al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad at-Termiziy nomlari kiritiladi. Chunki ularning asarlari necha yuz yillardan beri musulmon olamida ilm va ta'lim-tarbiya darsligi sifatida o`qitib kelinadi. Bu ikki

zot asarlari Qur'oni Karim va payg`ambarimiz Hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vassallam hadislari butun insoniyat uchun yaratilgan beqiyos ma'naviy boylik ekanligini, bu boylik abadul-abad tuganmasligini ko`rsatib beradi.

Ular o`z asarlari bilangina emas, o`rtalaridagi ustoz-shogirdlik munosabatlari bilan ham asrlar davomida ibrat bo`lib keladi. Imom al-Buxoriy shogirdi imom at-Termiziyning ulug` alloma ekanligini e'tiroflab: "Sen mendan bahra topganingdan ko`ra, men sendan ko`proq bahra topdim" degan bo`lsa, imom al-Buxoriy vafot etganlarida imom at-Termiziy yig`layverganidan ko`zlari bir necha yil ko`rmay qolgan. Ustoz-shogirdning bunday munosabati ularning komil inson bo`lganidan dalolat beradi. Shayxul Islom Abu Ismoil al-Ajoriy: "Mening uchun Termiziyning kitobi Buxoriy va Muslim kitoblaridan ko`ra foydaliroqdir. Chunki Buxoriy va Muslimdan faqat teran ilmi mutaxassis olimlarga istifoda etadi. Termiziydan esa har kim foydalanishi mumkin" deydiki, bu imom al-Buxoriyning imom at-Termiziy haqidagi e'tirofida chuqur asos borligini ayon etadi. Alloma Toshko`prulizoda Imom at-Termiziyning "Al-jomi-as-sahih" ("Sunan") kitobi hadis ilmi sohasidagi barcha asarlar orasida foydasi eng ko`pi, tartibi eng ixchami, takrori eng ozidir" deb ta'kidlaydi. Ibnul Imod al-Hanbaliy "Shuzurot-uz-zahab" kitobida Imom at-Termiziyga: "Aqronlaridan (tengdosh), yaqinlaridan ustun, hizf (xotira) va itqon (ustuvorlik va mustahkamlik) bobida bir mo'jiza edi" deb ta'rif beradi hadis bobida tasnif etilgan kutubi sitta (olti ulug` kitob)ning uchinchi deb e'tirof etiladigan "Sunani Termiziy" haqida muallifning o`zi: "Ushbu kitobni tasnif qilganimdan keyin uni Hijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga taqdim etdim. Ular rozilik bildirib, qabul qildilar. Kimning uyida bu kitobdan bo`lsa, o`sha xonadonda xuddi payg`ambar sallallohu alayhi vasallam gapirayotgandek bo`lur..." deydi.

Barchamizga ma`lumki, 2017 yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" deb e`lon qilindi. Ushbu nom biz pedagoglar uchun ham g`oyat katta ahamiyat kasb etdi. Sababi, bugungi kunda oliy ta`lim musassasida bilim olayotgan, oliy ma`lumotga ega bo`lgan har bir fuqaro o`z qobiliyati, bilimi bilan bir kun kelib rahbar lavozimlarida faoliyat olib borishi mumkin.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” nomli asarida rahbarlik faoliyatini olib borayotgan har bir shaxs avvalo, xalqning dardini tinglamog`i, unga kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishga harakat qilmog`i lozimligi haqida keskin va o`rinli fikrlarni keltiradilar.

Boshqaruv- rahbarlik faoliyati tarkibida odamlar bilan birgalikdagi faoliyat va ular o`rtasidagi muloqot hisoblanadi.

Rahbar qaysi tashkilotda faoliyat olib bormasin, qaysi sohada boshqaruvchilikni amalga oshirmasin, avvalo,

- ✓ Obro`li, nufuzli, ishonchli;
- ✓ Ishbilarmon, uddaburon, yoqimli;
- ✓ Mehrli va o`z ishining fidoyisi;
- ✓ Qat`iyatli va o`z so`zining ustidan chiquvchi;
- ✓ Vijdonli, andishali, insofli va o`ziga ishonch uyg`ota oladigan;
- ✓ O`ziga yarasha kelishgan, orasta, xushbichim, bashing kiyinishga berilmagan bo`lishi lozim.

Shu haqda so`z yuritar ekanmiz, buyuk alloma Imom Termiziyning mazkur mavzuga mos hadislariga yuzlanamiz. Ushbu hadislarda boshqaruvchilik faoliyatidagi halollik, fidoyilik, adolatparvarlik haqida qimmatli fikrlar mavjud.

-Biz bir odamni bir ishga bosh qilib qo`yib, unga tegishli rizqni bersak, shundan ortiq olgan narsasi hiyonat bo`ladir. (Hadis)

Izoh: millat o`zining ish boshida turgan bolalaridan xizmat kutishga naqadar haqli bo`lsa, ularning hojatlariga yetarlicha vazifa berib, ularning maishatlarini ta`min etishga ham shu qadar burchlidir. Maishatlari ta`min etilmagan ma`murlar, balki shariatga ko`ra harom bo`lgan poraga berilib, millatning tomirini quritishga sabab bo`ladirlar. Lekin millat tarafidan tegishlicha yordam ko`rgandan so`ng poraga sotilsa, u kishi qiyomat kun shu olgan narsasi bilan kishanga solib keltiriladilar.

- Sizning orangizdan biringizni bir ishga omil, bosh etib qo`ysak, u bizdan bir igna uchi yoki undan kichik bir narsani yashirsa, bu ishi bizga hiyonat bo`lib,

shu yashirgan narsasi bilan qiyomat kun qo`l-oyog`i kishanga solinib keltiriladilar. (Hadis)

Izoh: xalq uchun foydali ishlar qilish, xalqqa to`g`ri yo`l ko`rsatish, ish boshida bo`lgan ma`mur va imomlar qo`lida bo`lganligidan, albatta, ular oddiy xalqning zehni erisha olmagan nozik sirlarni-da biladigan o`tkir zehqli kishilar bo`lishi kerak. Xalq manfaati uchun harakat qilishga so`z berib, ish boshida o`tirgan odam, xalqdan bir narsani yashirsa yoki ajralib qolsa, butun millat xalqiga hiyonat etgan bo`lib, qiyomatda shu kishilar oldida qo`l-oyog`i kishanlangan holda turg`iziladilar.

- Bir musulmon o`z birodariga uni to`g`ri yo`l topishiga yoki yomonlikdan qaytishiga sabab bo`la turgan foydali so`zdan ortiq hadya bera olmas. (Hadis)

Izoh: turmush og`irligi ostida ezilgan bandaga yordam berib, shu og`irlikdan qutqarish unga naqadar buyuk yordam bo`lsa, umrlik saodatini yo`qotgan, butun umrini buzuqlikda o`tkazgan baxtsiz bir odamga foydali maslahatlar berib, shu yomon yo`ldan chiqarib to`g`ri yo`lga ko`ndirish, undan-da buyuk yordam, undan-da ortiq foyda bo`ladir.

-Xalq yuradigan yo`ldan tikanak cho`pi kabi aziyat beradigan narsalarni olib tashlagan kishining Alloh taolo, avval qilgan gunohlarini ham qilajak gunohlarini ham kechiradir. (Hadis)

Izoh: Yer yuzida xojalik qilgan tirishqoq odam bolalari yer kurrasining bir tarafidan ikkinchi tarafga borib yetishishlarini bilgan Payg`ambarimiz xalqning bunday uzun safarlarida ko`rajak mashaqqatlarini o`ylab, ularga qandaydir yengillik qilish kerakligini anglagan. Zamonning qorong`uligini, vaqtning g`oyat ozligi sababli o`zi boshlab shu yo`lda xizmat qila olmasa-da, bunday savobli ishni butun Islom dunyosiga tegishli qilib, umidli va`dalar bilan qiziqtirgan, muqaddas dinimizning hoxishiga ko`ra xalq foydasiga xizmat qila turgan temir yo`lu paroxodlar ham botqoq joylarda tosh yo`l qurishlar, hammasi musulmon idroki bilan ishlashi kerak bo`lsa-da, nodonligimiz faqirligimiz orqasida dinimizning bu tilagini o`tay olmadik. Hech bo`lmaganda, qo`limizdan kelgan ko`cha-yu, yo`llarni

tozalash, kichkina ko`priklarni tuzatish kabi yengil ishlarni qilib, diniy burchimizni ado etishga tirishaylik.

Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o`z qimmatini yo`qotgan emas. Uning «Al-Jomi' as-sahiyh», «Ash-shamoil an-nabaviyya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lib insonlarni halol, adolatli, iymon-e`tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmat-e`tiborli bo`lishga chorlaydi.

Bu ibratli pand-nasihatlari va o`g`itlar xalqimizni, jamiyatimiz ahlini, ayniqsa yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta`kidlash o`rinlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo`lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma`lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo`lgan «al-Jomi' as-sahiyh»da tarix, mantiq huquqshunoslik, tabobat, ziroatga oid ko`plab qimmatli ma`lumotlarni uchratamiz. Arab tilini rivojlantirishda at-Termiziyning xizmatlari kattaligini zamonaviy olimlar qayta-qayta ta`kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk bobokalonimizning shaxsiy hayoti va uning boy ma`naviy merosini chuqur va har tomonlama o`rganish yoshlardagi boshqaruvchilik qobiliyatini rivojlantirishda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga egadir.